

1. Kirish qism

1-gap. Bugungi kunda odamlar orasida.....(mavzuning kalit so'zi) bilan bogliq turli xil ixtiloflar/qarashlar mavjud.

2-gap. Ayrimlar.....degan bir paytda boshqalar.....deydi/tarafdori.(parafraza)

3-gap. Quyida mana shu fikr-mulohazalar haqida bayon qilamiz.(tezis)

2. Asosiy 1 qism

1-gap. Barchaga ma'lumki, bu borada birinchi fikr egalari yetarlicha asosli dalillarga ega.

2-gap. Birinchidan,.....(1-argument).

3-gap. Izoh(1 ta yoki 2 ta gap bilan).

4-gap. Dalil.....

5-gap. Ikkinchidan,.....(2-argument).

6-gap. Izoh.....(1 ta yoki 2 ta gap bilan).

7-gap. Dalil.....

3. Asosiy 2 qism

1-gap. Biroq ikkinchi tomonning ham fikrlarini inkor etib bo'lmaydi.

2-gap. Avvalambor,.....(ikkinchi tomonning birinchi argumenti).

3-gap. Izoh.....(1 ta yoki 2 ta gap bilan).

4-gap. Dalil.....

5-gap. Qolaversa,.....(ikkinchi tomonning ikkinchi argumenti).

6-gap. Izoh.....(1 ta yoki 2 ta gap bilan).

7-gap. Dalil.....

4. Mening fikrim qismi

1-gap. Nazarimda,.....ga qaragandaafzalroq/ ijobiy taraflariga qaraganda salbiy tomonlari koproq.(Esse mavzusiga qarab tanlaymiz).

2-gap. Yoqlagan tarafga sabab, ya'ni nega shu tarafni yoqlagani uchun (yangi fikr bolishi kerak. Asosiyda aytilgan fikrlar inobatga olinmaydi, 1 ta yoki 2 ta gapdan iborat bolishi kerak).

3-gap. Takliflar

4-gap. Agar qo'llay olsa bitta maqol yoki birovning gapi.

5. Xulosa qism

1-gap. Xulosa qilib aytganda,(qaysi tarafda ekanligi sezilib turadigan bitta gap. Qoshma gap shaklida bolsa yanayam yaxshi).

2-gap. Zero, to'g'ri tanlov- kelajak muqaddimasi. (barcha essega mos tushadi va tarqalib ketmagan maqol).

Tasviriy ifodalar:

1. Burgut-samo lochini
2. Yoshlar- kelajagimiz bunyodkorlari, ertamiz egalari
3. Farzandlar- yosh nihollar
4. Ota-ona- bog'bon
5. Televizor- oynayi jahon, zangori ekran
6. O'qituvchi-ta'lim jonkuyarlari
7. O'quvchi-ilm izlanuvchilar, ilm toliblari
8. Maktab, universitet- ilm dargohi, bilim maskani

Neologizm:

1. Xeshteg
2. Blog
3. Instagram, you tube.....
4. Instagram sahifalarida.....(va shunga o'xshash bugungi kunda keng qo'llaniladigan so'zlar).

Maqol:

1. Yetti o'lchab bir kes.
2. (barcha essega tushadi)

Ishlatilishi kerak bo'lgan leksik birliklar:

1. Tasviriy ifoda
2. Neologizm.
3. Ajratilgan bo'lak
4. Uyushiq bo'lak
5. Maqol
6. Kiritma
7. Qoshma gaplar
8. Ibora
9. Afarizmlar

Fe'llarni qayta- qayta takrorlamaslik uchun ishlatiladigan so'zlar:

1.turgan gap
2.tabiiy hol
3.hech kimga sir emas
4.desak mubolag'a bo'lmaydi